

“Yangi O‘zbekiston - yangi dunyoqarash” shiori ostida ma’naviy targ‘ibot tadbirlari

2020-yil 16-noyabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Gidrotexnika qurulishi” fakultetining kafedra mudirlari va professor-o‘qituvchilari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun - mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida O‘rtachirchiq tumanidagi birlashtirilgan mahallalarda “Yangi O‘zbekiston - yangi dunyoqarash” shiori ostida ma’naviy targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi. O‘rta Chirchiq tumanidagi 64-sonli maktabda Aranshi MFYda istiqomat qiluvchi aholi bilan “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” kafedrasini mudiri J.Qosimov, ushbu kafedra o‘qituvchisi U.Yedilbayevlar ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.



Uchrashuvda J.Qosimov Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda olib borayotgan islohotlar, aholining ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash, farovonligini ta‘minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida ma‘ruza qildi. U.Yedilboyev mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e‘tibor va imtiyozlar, yoshlar siyosati, barkamol va intellektual avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida ma‘ruza qilib berdilar. Aholini qiziqtirgan savollarga javob berildi. Uchrashuvlarning badiiy qismida taklif etilgan san‘atkorlar, maktab o‘quvchilari jamoasi tomonidan tayyorlangan qo‘shiq, raqs hamda sport o‘yinlari namoyish qilindi. Tadbirlar qiziqarli va mazmunli o‘tdi.Uchrashuvda mahalla raislari, uch yuzga yaqin mahalliy aholi hamda maktab jamoalari faol ishtirok etib, tadbirni yuqori saviyada tashkil etishga va uni mazmunli o‘tkazilishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishdi.

